



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 28-dekabr

762-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlari moliyaviy holatini barqarorlashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 29-noyabrda 794-son qarori ijrosi haqida”gi 619-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlari moliyaviy holatini barqarorlashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 29-noyabrda 794-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 26-dekabr da 619-6-0-Q/24-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlari moliyaviy holatini barqarorlashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 29-noyabrda 794-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 619-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2021-yil 19-iyundagi PQ-5152-son qaroriga muvofiq 2021-yil 1-iyuldan boshlab ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish usuli shirkatlardan boshqaruvchi tashkilotlarga o‘tgan uy-joylar uchun jalb qilingan kreditlarning muddatini, mahalliy hokimliklar kafilligi asosida uch yilgacha uzaytirish belgilanganligi;

ko‘p kvartirali uylarni avval boshqargan 2 961 ta uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tijorat banklari oldidagi 1,3 trln. so‘m kredit qarzdorliklari (keyingi o‘rinlarda - kredit qarzdorligi) yangi tashkil etilgan 634 ta boshqaruv servis kompaniyalariga qayta rasmiylashtirilganligi;

boshqaruvchi tashkilotlarga qayta rasmiylashtirilgan kredit qarzdorligini so‘ndirish muddatini ikki yilga uzaytirish va foiz to‘lovlarini muzlatish bo‘yicha kiritilgan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan ma‘qullanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi e‘tiborga olinsin.

3. Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (A.Xudoyberdiyev), tijorat banklari bilan birgalikda ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish usuli uy-joy mulkdorlari shirkatlaridan boshqaruvchi tashkilotlarga o‘tgan uy-joylar uchun jalb qilingan kreditlar hamda foizlarni so‘ndirish

muddatini mahalliy hokimliklar kafilligi asosida ikki yilga uzaytirish va foiz to'lovlarini muzlatish choralarini ko'rsin.

4. Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Xudoyberdiyev), tegishli bilan birgalikda kredit qarzidorligi kamaytirilishini ta'minlash maqsadida boshqaruv servis kompaniyalari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar turlarini ko'paytirish hamda ko'p kvartirali uy-joylar uchun majburiy badallar undirilishida boshqaruvchi tashkilotlarga ko'maklashsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining tegishli o'rinbosari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov